

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 PAQAMJII ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**QUVONDIQOV SARDORXON SIDIQ O'G'LI**

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK  
O'QITUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG'USINI  
RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

<b>Quvondiqov Sardorxon Sidiq o'g'li</b> Компетенсийавий yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish.....	3
<b>Кувондиков Сардорхон Сидик углы</b> Развитие чувства патриотизма будущих учителей на основе компетентностного подхода .....	20
<b>Kuvondikov Sardorkhon Sidik ugli</b> Development a sense of patriotism in future teachers based on a competency approach .....	39
<b>E'lon qilingan ishlar ro'yxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	44

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**QUVONDIQOV SARDORXON SIDIQ O‘G‘LI**

**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK  
O‘QITUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI  
RIVOJLANTIRISH**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Ped1057 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Abdullayeva Barno Sayfutdinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Sultanova Og'iloy Nabiyevna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Mamurov Baxodir Baxshullayevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-82-32; faks: (99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-76-51.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2023-yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**Z.N.Mamarajabova**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**R.G.Isyanov**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.n., dotsent

**D.B.Yakubjanova**  
ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim tizimini rivojlantirish, oliy ta'lim jarayonida talabalarda umummadaniy, ijtimoiy, fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning muhim yo'nalishi sifatida talabalarda ona-yurt va makonga aksiologik munosabatni tarkib toptirish, tarbiyaga texnologik yondashuvni tatbiq etish orqali vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptirishning pedagogik modellarini takomillashtirish, kelajakni himoya qilish zarurligini tushinish hamda adolat uchun kurashish istagiga ega bo'lish xislatlarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish, talabalarda siyosiy-ijtimoiy bilimlarni shakllantirishning innovatsion modellarini takomillashtirish, vatanparvarlik ongi va dunyoqarashini tarkib toptirishning pedagogik tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish, analitik yondashuv asosida o'zi va insonlarga nisbatan qadriyatli munosabatni rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik-huquqiy madaniyatni rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarda ijtimoiy faollik va tashabbuskorlikni rivojlantirish, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, turli axborot xurujlariga qarshi kurashish kompetentligini rivojlantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g'oyalariga sodiqlik, milliy o'zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga dahldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish"<sup>1</sup> ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga kompetensiyaviy yondashuvning talabalarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirishga doir pedagogik imkoniyatlarini ochib berish, vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish modeli va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish to'g'risida. 369-con. 2020-yil 25-yanvar. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2020-y., 09/20/369/0743-son.

ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish, faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, milliy tarbiyaga ustuvorlik berish asosida vatanparvarlikni baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari A.Akramov, O.Abdug'aniyev, Sh.Barotov, A.Begmatov, A.Mavrulov, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, Q.Nazarov, S.Nishonova, S.Norboyeva, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, M.Xo'jayev, M.Sharifxo'jayev, B.Shermuxammadov, J.Yuldashev, M.Kaxxarova, M.Qirg'izboyev, M.Quronov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari A.Gayazov, V.Gladik, V.Jernov, V.Jurova, N.Ippolitova, T.Luginina, Z.Mazir, Ye.Mitina, L.Orinina, Yu.Podlesnaya, O.Poluxin, L.Rudchenko, Sh.Xayrulin, O.Yarigin kabilar ta'lim-tarbiya jarayonlarida vatanparvarlikni tarbiyalash va fuqarolik madaniyatini shakllantirishning falsafiy, psixologik va pedagogik masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijlik olimlar E.Banks, V.Berg, G.Biesta, V.Link, D.Brown, B.Ward, M.Boun, C.Mutch va boshqalar talabalarda vatanparvar fuqaroni shakllantirish, "Tinchlik uchun ta'lim" g'oyasi asosida pedagogik faoliyatni amalga oshirishning turli jihatlarini taddiq etgan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170923121 raqamli "Ta'lim muassasalarida hamkorlik asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish" nomli loyihasi doirasida bajarilgan (2017-2020-yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish imkoniyatlarini takomillashtirish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish;

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Jismoniy madaniyat bakalavriat yo'nalishining 328 nafar respondent - Toshkent davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat universiteti va Andijon davlat universitetining talabasi ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, kuzatish, test, so'rovnomalar, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish imkoniyatlari jarayon tuzilmasining tarkibiy komponentlarini hissiy-emotsional, aksiologik-funksional va amaliy-faoliyatli ko'rsatkichlar natijasiga mazmunan uyg'unlashtirish hamda milliy qadriyatlarga mos shakllangan o'z Vatani va xalqiga sodiqlikni obyektiv baholash mezonlarining validligini prognostik aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayoni milliy o'zlikni anglash, millat o'tmishi, ajdodlar mehnati va qahramonligini ulug'lash hamda umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasining kognitiv va hissiy, ijtimoiy va shaxsdagi individuallikning dialektik birligi bilan transformatsiyalashishiga intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish modeli muammoli ma'ruza, keys, interfaol mashqlar va treninglar ta'sirchanligini ta'lim maqsadlariga uyg'un rivojlantirish hamda dahldorlik, fidoyilik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalash sifatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar natijadorligini bosqichma-bosqich kengaytirib borishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish mazmuni real vaziyatlar bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni kooperativ tarzda amalga oshirish, "talaba – vatanparvar – fuqaro – ijtimoiy faol o'qituvchi" konserti dinamikligini muntazam kengaytirib borish hamda vatanparvarlikni rivojlantiruvchi ehtiyoj va kognitiv faollik motivatsiyalarini shaxsiy xususiyatlarga adaptiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llangan yondashuv, usullarning ilmiy-metodik jihatdan asoslangani, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usi" tushunchasining mazmun-mohiyati, mazkur jarayonning tuzilmasi, komponentlari, asosiy jihatlari, mezonlarining aniqlashtirilgani, bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini

rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ochib berilgani, kompetensiyaviy yondashuvning bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga doir pedagogik imkoniyatlari yoritilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish modeli, mazkur modelni amaliyotga joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari takomillashtirilgani, auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga doir keys, interaktiv topshiriqlar, ijtimoiy loyihalar, "Turon" klubining Nizomi va "Talaba – vatanparvar – fuqaro – ijtimoiy faol o'qituvchi" tarbiyaviy dasturi va metodik ta'minotining, bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish imkoniyatlari jarayon tuzilmasining tarkibiy komponentlarini hissiy-emotsional, aksiologik-funksional va amaliy-faoliyatli ko'rsatkichlar natijasiga mazmunan uyg'unlashtirish hamda milliy qadriyatlarga mos shakllangan o'z Vatani va xalqiga sodiqlikni obektiv baholash mezonlarining validligini prognostik aniqlashtirish asosida takomillashtirishga doir tavsiyalar "Sport pedagogik mahoratini oshirish (Futbol)" darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-son buyrug'i asosida berilgan 106-186 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning umumkasbiy va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga sharoit yaratilgan;

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayoni milliy o'zlikni anglash, millat o'tmishi, ajdodlar mehnati va qahramonligini ulug'lash hamda umuminsoniy qadriyatlar interiorizatsiyasining kognitiv va hissiy ijtimoiy va shaxsdagi individuallikning dialektik birligi bilan transformatsiyalashishiga intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Sport pedagogik mahoratini oshirish (Futbol)" darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-son buyrug'i asosida berilgan 106-186 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish imkoni kengaytirilgan;

kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish modeli muammoli ma'ruza, keys, interfaol mashqlar va treninglar ta'sirchanligini ta'lim maqsadlariga uyg'un rivojlantirish hamla dahldorlik, fidoyilik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalaniş sifatlarini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar natijadorligini bosqichma-bosqich kengaytirib borishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Sport pedagogik mahoratini oshirish (Futbol)" darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-son buyrug'i asosida berilgan 106-186 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirishga tayyorlashning didaktik ta'minotini takomillashtirishga erishilgan;

bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish mazmuni real vaziyatlar bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni kooperativ tarzda amalga oshirish, "talaba – vatanparvar – fuqaro – ijtimoiy faol o'qituvchi" konserti dinamikligini muntazam kengaytirib borish hamda vatanparvarlikni rivojlantiruvchi ehtiyoj va kognitiv faollik motivatsiyalarini shaxsiy xususiyatlarga adaptiv uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga oid xulosalar "Повышение спортивного педагогического мастерства (футбол)" darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-son buyrug'i asosida berilgan 106-186 raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirishga tayyorlashning uslubiy ta'minotini rivojlantirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, 130 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning "**Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida vatanparvarlik tarbiyasiga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish ijtimoiy zaruriyat ekani, bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning integrativ-pedagogik xususiyatlari, vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayonlarini tashxis etishga doir milliy va xorijiy tajribalar tahlili bayon etilgan.

Vatanparvarlik muammosi respublikamizda ham, chet elda ham ko'plab tadqiqotlar predmeti sifatida tadqiq etilmoqda. Buyuk faylasuf, pedagog, psixolog olimlar, yozuvchilar qadim zamonlardan boshlab, hozirgi vaqtgacha mazkur masalaga alohida e'tibor qaratib kelishmoqda.

Vatanparvarlik barcha tarixiy davrlar va barcha avlod uchun xos xususiyatdir. Jamiyatning rivojlanishi, mavjud shart-sharoitlarning o'zgarishi bilan vatanparvarlik tushunchasi mazmun-mohiyati ham o'ziga xos ahamiyat kasb etib boradi. Vatanparvarlik tushunchasining mohiyatini anglash uchun har bir davlatning tashkil topishi va mustahkamlanishi, uning milliy mustaqillik uchun kurashi bilan bog'liq


tarixiy genezisidan xabardor bo‘lish lozim. Ana shu sababli vatanparvarlik minglab yillar davomida odamlarda shakllangan yuksak hissiyotdir.

Kompetensiyaviy yondashuv oliy ta‘lim tizimida tarbiya mazmunini va mutaxassis tayyorgarligining sifatini aniqlash uchun qo‘llaniladi, ta‘limning natijaviyligi va shaxsning o‘zaro uzviy aloqador fazilatlarini sifatida bitiruvchi tayyorligi sifatining integratsiyalashgan tavsifini ochib beradi.

Bizgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalari fuqarolik kompetensiyasi mazmuni hamda vatanparvarlik tuyg‘usi tushunchasi o‘rtasida o‘xshashlik mavjudligini ko‘rsatdi.

“Vatanparvarlik tuyg‘usi” atamasi jamiyat va davlat rivojining ichki resurslari, davlatchilik nazariyasi va metodologiyasida asosiy o‘rinni egallaydi. Vatanparvarlik tuyg‘usi davlatga nisbatan o‘z huquq va majburiyatlarini anglash sifatida namoyon bo‘ladi: “Vatanni himoya qilish – bu fuqaroning burchi va majburiyati” sanalib, u “fuqarolik kompetensiyasi” va “vatanparvarlik tuyg‘usi” tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro mustahkam aloqadorlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Vatanparvarlik tuyg‘usi integrativ va murakkab shaxsiy xususiyatlar yig‘indisi sifatida quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi (1-rasmga qarang): vatanparvarlik ongi; vatanparvarlikka yo‘naltirilgan dunyoqarash; milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik e‘tiqodi; vatanparvarlik ustanovkasi; vatanparvarlik pozitsiyasi; vatanparvarlikka doir qadriyatli yo‘nalganlik; vatanparvarlik ideallari; ijtimoiy-ijobiy munosabat; ijtimoiy-ijobiy (vatanparvarlik) faoliyat.



**1-rasm. Vatanparvarlik tuyg‘usining integrativ xususiyatlari**


Tadqiqot doirasida talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishning komponentlarini tahlil etishda N.A.Levinaning psixologik tadqiqotlari natijalariga asoslanildi. Mazkur tadqiqot natijasida psixologik munosabatlarning barcha o‘ziga xosliklarini qamrab olgan holda, vatanparvarlik tuyg‘usining kognitiv (bilishga oid), emotsional va xulq-atvorga doir tarkibiy asoslari aniqlashtirilgan.

Biz esa, kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan vatanparvarlik tuyg‘usini shaxsiy fazilatlar tizimi sifatida talqin qilish asosida uning uch asosiy komponentini aniqlashtirdik (2-rasmga qarang).

Hissiy-emotsional: Vatanga muhabbat; xalqning kuch va imkoniyatlariga ishonish; milliy gʻurur; tarixiy jihatdan Vatanning buyukligi va oʻrni haqida tasavvurga egalik; Vatanni himoya qilishga tayyorlik; davlat va xalq manfaatlari haqida qaygʻurish; maʼlum bir etnik yoki ijtimoiy guruhga mansublikni anglash.

Aksiologik: Vatan manfaati uchun jonini fido qilish; Vatan manfaatlarini shaxsiy ehtiyojlaridan ustun qoʻyish qobiliyati; xalqning maʼnaviy-axloqiy merosiga chuqur hurmat; aksiologik yoʻnalganlik tizimida milliy qadriyatlarning ustuvorlik kasb etishi; milliy va umuminsoniy maʼnaviy qadriyatlar tizimiga sodiqlik.

Amaliy-faoliyatga doir: hayotini xavf ostiga qoʻyib boʻlsa ham, Vatan manfaatlarini chinakam himoya qilishga tayyorlik; saylov, soʻrov, referendumlar jarayonida vatanparvarlik pozitsiyasining aniq ifodasi; jamiyat, ijtimoiy guruh va shaxsning qadriyatlar tizimida milliy qadriyatlarning ustuvorligi; amaliy harakatlarning qabul qilingan qadriyatlar va his-tuygʻularga muvofiqligi; muayyan etnik guruh va milliy birdamlikning yuqori darajasiga ega boʻlgan shaxsning oʻz-oʻzini anglashi; milliy va davlat manfaatlaridan xabardorlik hamda ularning jamiyatdagi ommaviy ijtimoiy harakatlarga mosligi.



**2-rasm. Talabalarda vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari tavsifi**

Global miqyosdagi ijtimoiy jarayonlarning koʻp oʻlchamliligi, yoshlarni tarbiyalashning maʼnaviy-axloqiy asos va omillari murakkabligi hamda ahamiyatligi vatanparvarlik tuygʻusini tashhis etishning individual-psixologik, ijtimoiy, emotsional, qadriyatli yoʻnalganlik xususiyatlari bilan boyitiladigan oʻlchov mezonlarini tanlab olishga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Bu borada respublikamiz va xorijdaga tajribalarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Soʻnggi yillarda talabalarda vatanparvarlik koʻrsatkichlarini tahlil etish va baholashga doir tadqiqotlarni amalga oshirgan A.Uzoqovning qayd etib oʻtishicha, “Yoshlarda vatanparvarlik darajasining sifat koʻrsatkichlarini pedagogik tahlil qilish maʼlum obyektga yoʻnaltirilganligi bilan belgilanadi, yoshlarning rivojlanish davrlari, emotsional-hissiy sohasini oʻrganish, individual tafovutlarini hisobga olish, ularning dunyoqarashi, mental xususiyatlari, ijtimoiy nufuziga qarab belgilanadi. Talabalarda vatanparvarlik darajasining sifat koʻrsatkichlarini pedagogik tahlil qilish

asnosida kelajakdagi fuqarolik e'tiqodiga ta'sir etuvchi mezonlar ishlab chiqilishi muhim ahamiyat kasb etadi".

Vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning uch muhim yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

Yosh avlod ongida vatanparvarlik g'oyasini singdirish. Bu erda milliy mafkura va ta'lim tizimi muhim rol o'ynaydi.

Vatanparvarlik hissini rivojlantirish. Vatanparvarlik ijtimoiy sifat tarzida emotsional va ratsional birlik sifatida shaxs ongida tarkib topadi.

O'z Vatani kelajagi uchun fuqarolik mas'uliyatini rivojlantirish.

Vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish S.E.Matushkin va N.V.Ippolitovalarning fikricha, yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlari, bundan tashqari talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xosliklarini aks ettiruvchi tamoyillar yig'indisiga asoslanadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: vatanparvarlik tarbiyasining jamiyat rivojlanishi va unda yuz berayotgan voqea-hodisalar bilan shartlanganligi; vatanparvarlik tarbiyasi tizimida ta'lim tashkiloti, oila, mahallaning o'zaro harakat uyg'unligi; vatanparvarlik tarbiyasi mazmuni, shakl, metod, vosita va usullarining o'zbek xalqining tarixiy an'analari bilan shartlanganligi; vatanparvarlik tarbiyasi metodlarini tanlab olishning talabalarning yosh va individual o'ziga xosliklariga bog'liqligi; o'quv materialari hamda sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar mazmunining o'zaro aloqadorligi va dialektik birligi.

Tarbiya jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni hisobga olgan holda, mazkur tamoyillar yig'indisini boshqalari bilan to'ldirish mumkin: integrativ yondashuv, birinchidan, vatanparvarlik tarbiyasini tarbiyaviy ishning boshqa yo'nalishlari va ta'lim jarayoni, yagona pedagogik jarayonda tarbiyalash va rivojlantirish bilan integratsiyalash; ikkinchidan, tarbiyalanuvchilarni faoliyatning xilma-xil mazmuni va shakllariga olib kirish asosida vatanparvarlik tarbiyasining vazifalarini hal etish; vatanparvarlik tarbiyasining moslashuvchanligi va xilma-xilligi; shaxsni tarbiyalashda ijobiy xatti-harakatlarga tayanish tamoyili.

Alohida ta'kidlash joizki, vatanparvarlik tuyg'usining rivojlanganligini faqatgina talabalarning shaxsiy fikrlarini hisobga olish orqali obyektiv baholash mumkin. Mazkur masala bo'yicha ularning munosabatlari, qarashlari ta'lim tashkilotida amal qilayotgan tarbiya metodlari, talabalarda qadriyatli munosabatning rivojlanganlik darajasi, o'z Vatani va xalqiga sodiqlikni obyektiv baholashga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish mazmuni, modeli va pedagogik shart-sharoitlari yoritib berilgan.

Bugungi kunda dunyodagi eng oliy maqsad tinchlikni saqlash bo'lib hisoblanadi. Shu jihatdan, xalqlar orasida milliy totuvlikni saqlash, do'stona munosabatlarni o'rnatish, fikr hamkorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Journal of American Indian Education” jurnali tarbiyaviy faoliyat strategiyasi xaqida so'z yuritib, “yaxshi inson”ni shakllantirish birinchi navbatda axborot, ma'rifat, ongning rivojlanishi, qarama-qarshiliklarni engib o'tish, tanqid, ijodiy

faollik, siyosiy, madaniy va iqtisodiy sohalarda mustaqil qaror qabul qila olish kabi ko'nikmalarni integral shakllantirish orqali kechishi lozim"ligini ta'kidlaydi.

Xorijiy tajriba tahlili asosida zamonaviy vatanparvar shaxsga xos kompetensiyalar(fazilatlar)ni ajratib ko'rsatish mumkin.

Xorijiy tajribalar tahlili asosida tadqiqotda umummadaniy kompetensiyalar asosida talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Umummadaniy kompetensiyalarni o'zlashtirish nafaqat ijtimoiy-madaniy bilimdonlik, balki madaniyat haqidagi bilimlarni boyitish, mazkur bilimlarni axloqiy e'tiqod, ma'naviy hayot me'yorlari va tamoyillariga aylantirishga imkon beruvchi madaniy faoliyatga talabalarni jalb etishni ta'minlaydi hamda shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida ijodiy faoliyat ko'nikma va malakalarida o'z aksini topadi.

Shuningdek, pedagogika ta'lim sohasi Davlat ta'lim standartini tahlil etish asosida 36 ta kasbiy kompetensiyalardan 5 tasi aynan talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga qaratilganligi aniqlashtirildi: o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish qobiliyati; ta'lim oluvchilarda ma'naviy, axloqiy qadriyatlar va fuqarolikni shakllantirishga doir tarbiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik; ijtimoiy profilaktika bo'yicha tadbirlarni tashkil etishga tayyorlik; shaxs rivojini tashxis etish va prognozlashtirishga tayyorlik; o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalash qobiliyatini shakllantirishga tayyorlik.


Oliy ta'limda o'qish yillari inson nafaqat dasturda ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishi, balki o'zining hayot mazmunini belgilab beruvchi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini anglash va mustahkamlash davri bo'lishi lozim: Vatani va oilasiga muhabbat, kattalarga hurmat, bemorlarga mehribon, hayotga muhabbat va boshqalar.

Umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni tahlil qilish asosida biz e'tiborimizni ular orasidan aynan talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiladigan jihatlarga qaratdik. Bizningcha, talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) fuqarolik kompetensiyasi; 2) oilaviy-ijtimoiy kompetensiya; 3) valeologik kompetensiya; 4) qadriyatli-yo'nalganlik kompetensiyasi; 5) ijtimoiy-madaniy kompetensiya; 6) ijtimoiy-pedagogik kompetensiya.

XXI asr oliy ta'limi to'g'risidagi Butunjahon deklaratsiyasida bitiruvchilarni mustaqil, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy muammolarni tahlil qilish, jamiyat oldida turgan muammolarga echim izlab topishga qodir va yuqori motivatsiyaga ega fuqarolar sifatida tayyorlash lozimligi alohida belgilab berilgan. Shunday ekan, zamonaviy sharoitda oliy ta'lim jarayonlari talabalarning vatanparvarlik tuyg'usining hissiy-emotsional, kognitiv, aksiologik va amaliy-faoliyatli kabi barcha tarkibiy qismlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Bizningcha, zamonaviy shaxs kasbi va faoliyatidan qat'iy nazar, yuqori darajadagi vatanparvarlik tuyg'usiga ega bo'lishi kerak. Bu esa, kishilarga bir tomondan, o'zining hayotiy faoliyatidan mamnunlik hissini tuyish imkonini bersa, ikkinchi jihatdan, o'z hayoti davomida faol va mas'uliyatli, boshqalarning haq-huquqlarini hurmat qiladigan vatanparvar shaxs sifatida shakllanishi uchun muhim o'rin tutadi.

Tahliliy materiallarni umumlashtirish asosida tadqiqot doirasida talabalarning vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayonining pedagogik modeli ishlab chiqildi (3-rasm).



**3-rasm. Talabalar vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayonining pedagogik modeli**

Vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirishning ichki mexanizmlari, odatda, hamma vaqt ham tashqi jihatdan yorqin namoyon boʻlmaydi. Shuning uchun aniq maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat orqali amalga oshirilishi va uning natijalari talaba shaxsini yaxlit idrok etish uchun asos yaratishi muhimdir. Aniq maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyat jarayonida vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirish talabalarning oʻzini oʻzi anglashi va oʻz oʻrnini belgilay olishining muhim shartidir.

Talabalarda fuqarolik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonlarida quyidagi tamoyillarga tayanish lozim: yaxlitlik, insonparvarlik, ijtimoiy maqbullik, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish.

Talabalarda vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirishning pedagogik modeli oʻzaro bir-biri bilan bogʻliq boʻlgan toʻrtta tarkibiy asosdan iborat:

maqsadli. Vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirish jarayonida maqsadni belgilash ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida oʻzida muhim omillarning yaxlit tasavvurini aks ettiradi. Vazifalarni aniqlashtirish mazkur jarayonni amalga oshirish bosqichlari, asosiy yoʻnalishlari, shakl, metod va vositalarini tanlashga xizmat qiladi. Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar rejalashtirilgan faoliyatni vatanparvarlik tarbiyasi mazmuni bilan boyitadi. Ishlab chiqilgan pedagogik shart-sharoitlarning samaradorligi tajriba-sinov jarayonida aprobatsiyadan oʻtkaziladi;

mazmunli. Talabalarda vatanparvarlik tuygʻusini bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonida amalga oshiriladigan komponentlarning asosiy mohiyatini oʻzida ifoda etadi. Modelning mazmunli blokini roʻyobga chiqarish auditoriya va auditoriyadan tashqari mashgʻulotlarda amalga oshadi;

tashkiliy-faoliyatli. Vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirish jarayonining bosqichlari, professor-oʻqituvchilar, tyutorlar va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishning amaliy tizimini oʻz ichiga oladi;

baholovchi-natijaviy – talabalarda vatanparvarlik tuygʻusini rivojlanganlik darajasidagi oʻzgarishlarni aniqlash uchun baholash mezonlari, koʻrsatkichlari, darajalari hamda diagnostik vositalarni aks ettiradi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, boʻlajak oʻqituvchilarda vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirish samaradorligiga bir qator pedagogik shart-sharoitlarni taʼminlash orqali erishish mumkin.

Boʻlajak oʻqituvchilarda vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirishni taʼminlaydigan birinchi pedagogik shart-sharoit oliy taʼlim mazmunini vatanparvarlikka doir oʻquv materiallari bilan boyitishdir. Vatanparvarlik tuygʻusi integrativ tavsifga ega boʻlganligi sababli u barcha oʻquv fanlari doirasida rivojlanadi. Shubhasiz, bu oʻrinda ijtimoiy-gumanitar fanlar alohida oʻrin tutadi.

Shuningdek, fanlararo aloqadorlik orqali talabalar shaxs va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni oʻzlashtirishadi, millatlararo totuvlik va bagʻrikenglikning zaruriyatini anglaydi, manbalar bilan ishlash, ularni tahlil qilish, oʻtmish va bugungi kunni qiyoslash koʻnikma va malakalariga ega boʻladi, oʻqituvchilik va murabbiylik kasbining ijtimoiy-madaniy ahamiyatini anglab etadi.

Boʻlajak oʻqituvchilarda vatanparvarlik tuygʻusini rivojlantirishning ikkinchi muhim sharti ularning tanqidiy tafakkurini tarkib toptiradigan va amaliy faoliyatga jalb etishga xizmat qiladigan faol va interfaol metodlardan foydalanishga asoslangan anʼanaviy va innovatsion texnologiyalarning maqbul integratsiyasini taʼminlashdir.

Shuning uchun oliy ta'limga mos tarzda vatanparvarlik tarbiyasining shakl, metod hamda vositalarini tez o'zgaruvchan sharoitlarga muvofiq takomillashtirish, ijtimoiy talab va ehtiyojlarga javob beradigan yangi ma'naviy makonni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishning yana bir asosiy sharti samarali hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishdir. Buning uchun sub'ekt-sub'ekt munosabatlariga asoslangan "talaba – professor-o'qituvchi – talaba" tizimiga asoslangan faoliyatni tashkil etish talab etiladi. Bu o'rinda albatta, o'qituvchining huquqiy normalarni hurmat qilishi, tolerantlikka doir qadriyatlarni va xilma-xillikni tan olishi, o'z faoliyatini demokratik uslubga asoslanib tashkil etishi, talabalarni pedagogik qo'llab-quvvatlashi, yuksak kommunikativ madaniyatini belgilab beruvchi vatanparvarlik pozitsiyasi muhim o'rin tutadi.

Dissertatsiyaning **"Bo'lajak o'qituvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish samaradorligi"** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi hamda natijalari va tahlili yoritib berilgan.

